

Energiya tizimiga oid muammoli ma'ruza

TIQXMMI “Elektr texnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrasidan tashkil etilgan V – o‘quv binosi 409 – ma’ruza xonasida, “Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishi uchinchi bosqich 303 - guruh talabalari ishtirokida «O‘zbekiston Respublikasi energiya tizimi strukturasi va yangi loyihalari» mavzusida ma’ruza o‘tkazildi. Mazkur tadbirda “Elektr texnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrasidan o‘qituvchilari ishtirok etishdi.

Ma’ruzada asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining tashkil etilishi va “O‘zbekenergo” AJ korxonasi va “O‘zelektrotarmoq” AJ korxonasi birgalikda vazirlikning tarkibiy qismi hamda elektr energiyasini uzatish, tarqatish, ta’mirlash va ekspluatatsiya qilish ishlari bilan shug‘ullanishi va shunga o‘xshash muammolarni bartaraf etishda bu sabablarni keltiruvchi holatlarning oldini olish masalalari bo‘yicha dolzarb muammolari yoritib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika tizimining rivojlanish istiqbollari bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030 yilga borib respublikaning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 117,2 mlrd. kVt.soatni yoki 2018 yilga (66,1 mlrd. kVt.s) nisbatan 1,7 barobarga ortadi, shu jumladan, respublika aholisining iste’moli 19,5 mlrd.kVt.soatni (1,5 barobar), iqtisodiyot tarmoqlarining iste’moli – 70,6 mlrd. kVt.soatni (1,9 barobar) tashkil etadi.

2030 yilga borib kuz-qish mavsumida elektr energiyasi iste’moli tig‘iz vaqtlarda jami elektr yuklamasi, 2018-2019 yil kuz-qish mavsumidagi 11 ming MVtga nisbatan, 20 ming MVtga teng bo‘ladi. Natijada, 2030 yilga borib respublikada elektr energiyasiga bo‘lgan talab 1,8 barobarga (+ 10 ming MVtga) ortishi haqida tushuncha berib o‘tildi.



“Elektr texnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrasidan mudiri Abdurahim Berdishev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov